

Investetsiya va qurilish statistikasi bo`limi

yanvar-avgust 2019 yil.



Viloyatimizda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida jami 2226,9 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 131,3 foizni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 662,6 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,8 foizni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 129,7 foizni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,2 foizni yoki 1029,7 mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 126,3 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 24,0 foiz ulush yoki 534,7 mlrd. so`m qurilish ishlari to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 143,8 foizni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmida 70,3 foizni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 16,2 foizga kamaydi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmidagi ulushi joriy davrda 11,8 foizni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 4,2 foizga ko'paydi.




Shu jumladan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 17,9 foiz ulush to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davri ulushiga nisbatan 12,0 foizga ko`paydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi (%)



2018 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi (%)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 406,1 mlrd. so`m, jami qurilish ishlaridagi ulushi 18,2 foizni tashkil etdi

Mazkur itisodiy faoliyat turi bo`yicha kichik tashkilotlar va mikrofirmalar qurilish ishlari hajmi 624,6 mlrd. so`mni, jamiga nisbatan ulushi 28,0 foizni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida norasmiy sektorining 534,7 mlrd. so`mni, ulushi 24,0 foizni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-avgust oylarida jami qurilish ishlari faoliyat turlari ulushi bo`yicha ma`lumotlar.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida fuqarolik ob'yektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 5,1 foizni tashkil etdi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 6,7 foizni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 6,4 foizni tashkil etdi. Shu jumladan kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 11,5 foizni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy
faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari
(mlrd.so`m)**

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar - jami</i>	<i>shundan : binolar va inshootlar qurilishi</i>	<i>fuqarolik qurilishi obyektlari</i>	<i>ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>
Navoiy viloyati	1906,2	1330,4	220,6	355,2
Navoiy sh.	474,9	351,0	35,2	88,8
Zarafshon sh.	514,3	348,0	14,8	151,5
Karmana	213,7	139,4	39,4	34,9
Konimex	31,6	25,6	3,4	2,6
Qiziltepa	279,9	162,9	77,3	39,7
Navbahor	127,1	106,3	11,7	9,1
Nurota	89,6	65,4	9,2	15,0
Tomdi	7,4	2,3	2,9	2,2
Uchquduq	25,8	10,5	7,1	8,2
Xatirchi	141,8	119,0	19,6	3,2

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 876,2 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 46,0 foizni) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 1,0 foizga kamaydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmi o`sinh sur'ati tumanlar kesimida (%)





Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha tarkibida Navoiy shahrida qurilish ishlari hajmi 141,9% foizni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 33,5 foizga qurilish ishlari ko`p bajarilgan, Karmana tumanida 159,4% foizni va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 74,1 foizga ko`p qurilish ishlari bajarilgan.

Qiziltepa, Navbahor tumanlarida mos ravishda, 124,7% va 129,0% foizni tashkil etib viloyatining o`shish sur`atiga samarali ta`sir ko`rsatmoqda. Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining eng kam foizini Uchquduq tumani 108,0% foizni tashkil etdi.



Qurilish ishlarining pudrat tashkilotlar kesimida eng yuqori hajm Zarafshon shahrida kuzatildi.

-“Auminzo-Amantay” konida oltinma`danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo`yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);

-“Amudaryo-Zarafshon” suv o`tkazgichining 3-bo`ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;

-“Ko`kpatas” va “Daugiztau” konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish ishlari joriy yilda ham davom ettirilmoqda.



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari



Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1029,6 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 46,2 foizni) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 1,0 foizga kamaydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 662,6 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 29,8 foizni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,2 foizga ko`paydi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 24,0 foizni yoki 534,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,8 foizga ko`paydi.

Mulkchilik shakllari


Nodavlat shakli

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1666,9 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 74,9 foizini tashkil qildi. Joriy davrda shahar va tumanlar kesimida eng yuqori nodavlat sektorining ulushi Navoiy shahrida jami qurilish ishlari hajmida 97,3 foizni tashkil qildi. Qiziltepa tumani bo`yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 100,0 foizni tashkil qildi. Karmana tumani bo`yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 93,5 foizni tashkil qildi.



Davlat shakli

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 560,0 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 25,1 foizini tashkil qildi. Zarafshon shahrining jami qurilish ishlari hajmida davlat sektorining ulushi 85,9 foizni tashkil qildi.



2019 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

	<i>Jami qurilish ishlari (mlrd.so`m)</i>	<i>O`sinh sur`ati, foizda</i>	<i>shu jumladan: yirik tashkilotlar (mlrd.so`m)</i>	<i>O`sinh sur`ati, foizda</i>
Navoiy viloyati	2226.9	131.3	662.6	129.7
Navoiy sh.	567.9	141.9	79.8	130.7
Zarafshon sh.	577.9	123.1	469.7	120.9
tumanlar:				
Karmana	248.7	159.4	16.2	101.9
Konimex	37.1	110.5		
Qiziltepa	329.3	124.7	45.9	252.9
Navbahor	149.3	129.0		
Nurota	104.8	139.6		
Tomdi	8.7	133.9		
Uchquduq	30.2	108.0		
Xatirchi	173.0	117.5	24.0	479.4



*Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bulimi*

Aloqa telefoni: (0371) 230-84-46 (0379) 223-54-73